

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HARAKATLANUVCHI TARKIBLAR
XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH BO‘YICHA UMUMIY TEXNIK REGLAMENT
QABUL QILINGANLIGI TO‘G‘RISIDA

R.A.Parpiyev

Andijon mashinasozlik instituti katta o‘qituvchisi

+998975838575

Umarov Ismoiljon

Andijon mashinasozlik instituti

“Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti” yo‘nalishi talabasi

+998937883668 ismoiljonumarov.777@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida texnik jihatdan tartibga solish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va temir yo‘l transporti harakatlanuvchi tarkiblari xavfsizligi to‘g‘risida qabul qilingan umumiy texnik reglament loyihasining qabul qilinishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan

Kalit so‘zlar: texnik jihatdan tartibga solish, reglament, temir yo‘l, transport, reglament, xavfsizlik

Аннотация: В данной статье приводятся материалы осфера технического урегулирования Республики Узбекистан, о работах по разработке и внедрению технических регламентов и в частности о принятии проекта общего технического регламента о безопасности подвижного состава на железнодорожном транспорте.

Ключевые слова: техническое регулирование, регулирование, железная дорога, транспорт, регулирование, безопасность.

Annotation: This article provides materials on the scope of the technical regulation of the Republic of Uzbekistan, on the development and implementation of technical regulations, and in particular on the adoption of a draft general technical regulation on the safety of rolling stock in railway transport.

Key words: technical regulation, regulation, railway, transport, regulation, safety

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Temir yo‘l transporti sohasida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari bilan aloqalar davom etib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi MDH ga a‘zo bo‘lganligi sababli ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar uchun belgilangan talablarni me‘yoriy hujjatlarda uyg‘unlashtirish bo‘yicha doimiy ishlar amalga oshirilmog‘da. Jumladan Temir yo‘l transportida yuk vagonlarini sertifikatlashtirish ishlari O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yuk vagonlari harakatini ta‘minlash uchun hozirga qadar Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi tomonidan qabul qilingan TP TC 001/2011 "Harakatdagi temiryo‘l tarkibi xavfsizligi to‘g‘risida"gi bojxona ittifoqi texnik reglamenti talablari asosida o‘tkazib kelinmog‘da. Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik



palatasi tomonidan 2008 yil 11 noyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2009 yil 27 martda ma’qullangan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 23 apreldan O‘RQ-213 sonli qarori bilan kuchga kiritilgan “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinishi bilan standartlashtirish sohasida yangi yo‘nalishga asos solindi.

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini shakllantirish va standartlashtirish davlat tizimini isloh qilish konsepsiyasida soha faoliyati bilan bog‘liq barcha jarayonlarni tashkil qilish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab olindi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi texnik reglamentlar reestrda 38 ta umumiy va 11 ta maxsus texnik reglament ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularda belgilangan xavfsizlik bo‘yicha talablarni bajarilishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar bo‘yicha kerakli sifat va raqobatbardoshlikni ta‘minlashga, shuningdek tashqi savdo va aloqalarda to‘siqlarni bartaraf etilishiga xizmat qilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining 28.09.2022 yil dagi №537 sonli “Foydalanishga topshirilgan harakatdagi temir yo‘l tarkibi xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori bilan yangi texnik reglament loyihasi tasdiqlandi.

Qarorga muvofiq texnik rasmiy e‘lon qilingan kunidan boshlab olti oy o‘tgach amalga kiritilishi va “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni talablariga muvofiq texnik reglament amalga kiritilgach, standartlashtirish bo‘yicha ularda ko‘rsatilgan mahsulotlar va xizmatlarga doir ilgari qabul qilingan normativ hujjatlar majburiylik xususiyatini yo‘qotishi va belgilangan tartibda qo‘llanilishida ixtiyoriylik kasb etishi belgilab qo‘yildi. Texnik reglament 6 bobdan iborat bo‘lib, ularda harakatlanuvchi tarkiblarni ishlab chiqarishdan boshlab foydalanishga qadar barcha jarayonlar uchun xavfsizlik bo‘yicha talablar keltirib o‘tilgan.

Hujjatning 1-bobida texnik reglamentning mohiyati, tartibga solish obyektlari, qo‘llanilish sohasi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Texnik reglamentda qo‘llanilgan asosiy atama va ta‘riflar hujjatning 2-bobida keltirilgan. Ushbu tushunchalar temir yo‘l transporti sohasida mavjud mahsulotlar, ishlar va jarayonlarni qamrab olgan.

Hujjatning 3-bobi 5 ta paragrafdan iborat bo‘lib, ularda 1 paragraf harakatdagi temir yo‘l tarkibi va uning tarkibiy qismlari xavfsizlikka qo‘yiladigan umumiy talablarni o‘z ichiga olgan.

Ya‘ni bu yerda:

-Harakatdagi temir yo‘l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini loyihalashtirishdahi sob-kitob, tajriba va ekspertlash yo‘li bilan, shu jumladan o‘xshash temir yo‘l mahsulotidan foydalanish bo‘yicha ma‘lumotlar asosida xavfsizlik darajasi baholanish lozimligi va ular qanday jarayonlardan iborat ekanligi to‘g‘risida

-harakatdagi temir yo‘l tarkibi va tarkibiy qismlari mustahkamligi, barqarorligi va texnik holatiga ko‘ra poyezdlarning yo‘l qo‘yilgan ko‘rsatmalar chegarasida eng yuqori



tezliklar bilan xavfsiz harakatlanishi ta'minlanishi lozimligi va ushbu ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

-2 paragrafda harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini loyihalashga qo'yiladigan talablar keltirilgan

Ya'ni bu yerda,

-loyihalash ishlari xavfsizligini ta'minlash

-sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ta'sirlarga nisbatan oldini oluvchi choralarni inobatga olish

-xavfsizlikni ta'minlash uchun dasturiy vositalardan foydalanish

-loyihalashdagi o'zgartirishlar sababi xavfsizlik bo'yicha talablarni pasayishiga yo'l qo'yilmasligi

-3 bob 2 paragraf 15 punkt

Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarining konstruksiyasiga yoki tayyorlanish texnologiyasiga xavfsizlikka ta'sir etuvchi o'zgartirishlar kiritilgan hollarda, shuningdek, xizmat muddatini uzaytirish bilan modernizatsiya qilinganda, ko'rsatib o'tilgan temir yo'l mahsulotining mazkur Texnik reglament 4-bobida belgilangan tartibda muvofiqligi majburiy tasdiqlashdan o'tkazilishi lozim.

Muvofiqligi majburiy tasdiqlashdan o'tkazilishi lozimligi to'g'risida talablar kiritilgan 3 paragrafda harakatdan temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini tamg'alashga qo'yiladigan talablar keltirilgan Ya'ni bu yerda,

-ishlab chiqarilgan mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi ichki bozoriga muvofiqlik sertifikatini mavjud bo'lganda muomalaga chiqarishi mumkinligi va muvofiqlik milliy belgisi bilan tamg'alanishi kerakligi, harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari

-identifikatsiya tamg'asi va unda ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati

-harakatdagi temir yo'l tarkibiga o'rnatilgan o'lchov vositalari qiyoslovdan o'tganlik to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi

-g'ildirak juftlari loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan tamg'alarga ega bo'lishi

-yuk vagon aravacha va boshqalari bir necha ma'lumotlarni anglatuvchi quyma tamg'alarga ega bo'lishi lozimligi

-yuk vagonlari aravachalarining rama va balkalarida ishlab chiqaruvchining tamg'asiga ega bo'lishi

-Payvandlovchi ishchilarning shaxsiy tamg'asiga ega bo'lishi

-mahsulotlardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash yuzasidan talab va tartiblar ko'rsatilgan hujjatlar majmui bo'lishi lozimligi va bunday hujjatlarsiz muomalaga chiqarish mumkin emasligi.

-tamg'a, foydalanish va ta'mirlash hujjatlari davlat tilida bo'lishi lozimligi to'g'risida ma'lumotlar kiritilgan.

4 paragrafda harakatdagi temir yo'l tarkibining boshqaruv, nazorat va xavfsizlik tizimlari, shuningdek, dasturiy vositasiga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Ya'ni bu yerda



-harakatdagi temir yoʻl tarkibi tizimi jihatidan foydalanuvchilariga hech qanday xavf solmasligi lozimligi

-foydalanuvchilar xavfsizligini taʼminlovchi moslama va yordamchi qurilmalarga ega boʻlishi lozimligi

-boshqaruv, nazorat va xavfsizlik tizimlariga har xil sharoitlarda ularning doimiy ish holatining taʼminlash lozimligi

-himoya vositalarining doimo xavfsiz faoliyatining taʼminlash lozimligi

-ogohlantiruvchi vositalar bilan taʼminlangan boʻlishi lozimligi

-dasturiy vositalarining doimiy himoyalanganligini taʼminlash lozimligi toʻgʻrisida talablar qoʻyilgan

5 paragrafda harakatdagi temir yoʻl tarkiblarini xavfsiz ishlashi uchun kerakli boʻlgan jihoz va vositalar toʻgʻrisida maʼlumotlar keltirilgan.

Texnik reglamentning 4 bobi harakatdagi temir yoʻl tarkibi va uning tarkibiy qismlarining muvofiqligini baholash deb ataladi va ushbu bob 3 ta paragrafdan iborat.

1 paragrafda harakatdagi temir yoʻl tarkibi va uning tarkibiy qismlarini identifikatlashtirish boʻyicha qoidalar keltirilgan. Yaʼni bu yerda

-hujjatlarda keltirilgan maʼlumotlar bilan yorliqlarda koʻrsatilgan maʼlumotlar muvofiqligini taqqoslash lozimligi

-identifikatsiya jarayonida xavfsizlik koʻrsatkichlarining muvofiqligini aniqlash lozimligi toʻgʻrisida talablar berilgan

2 paragrafda harakatdagi temir yoʻl tarkibi va uning tarkibiy qismlaridan namunalar tanlash va sinash ishlarini tashkil etish boʻyicha talablar keltirilgan. Yaʼni bu yerda

-sinov uskunalari ishlab chiqish

-namunalar tanlash qoidalari

-jarayonlarni rasmiylashtirish qoidalari

-ishlab chiqaruvchi tomonidan oʻtkaziladigan sinov usullari toʻgʻrisida

-sinov bayonnomalarini rasmiylashtirishga boʻlgan talablar keltirilgan

3 paragrafda muvofiqlikni baholash yoki tasdiqlash usullari va jarayonni amalga oshirish ketma-ketligi keltirilgan

Texnik reglamentning 5 bobida texnik reglament talablariga rioya etilishi boʻyicha davlat nazoratini amalga oshirish boʻyicha maʼlumotlar berilgan.

Yaʼni bu yerda davlat nazoratini transport vazirligi huzuridagi Temir yoʻllarda yuk va yoʻlovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi, Oʻzbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi shuningdek, boshqa maxsus vakolatli davlat idoralari oʻz vakolatlari doirasida amalga oshirish mumkinligi belgilab berilgan. Hujjatning 6-bobi yakunlovchi qoidalarga keltirilgan, yaʼni bu yerda

-Texnik reglament kuchga kirishi bilan ushbu talablarni oʻz ichiga olgan hujjatlar statusi toʻgʻrisida

-ushbu texnik reglament kuchga kirganidan soʻng hujjatining ilovasida koʻrsatilgan mahsulotlar uchun olingan muvofiqlik sertifikatlari statusi toʻgʻrisida



-texnik reglament talablarini buzganlik uchun javobgarlik to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan

Texnik reglamentda harakatdagi temir yo'l tarkibi, shuningdek, uning tarkibiy qismlarining turi va toifalari ro'yxati (1 ilova) va texnik reglamentni joriy etish sxemasi (2 ilova) qo'shimcha ilovalarda keltirilgan.

Shunday qilib, qabul qilingan umumiy texnik reglament temir yo'l transporti tizimida harakatlanuvchi temir yo'l tarkiblariga bo'lgan xavfsizlik talablarini yanada yuqori bosqichga olib chiqib, harakatxavfsizligini doimiy ta'minlashga xizmat ko'rsatadi deb umid qilamiz.

Demak texnik reglamentni kuchga kiritilishi sanasi belgilanishga qadar sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar ushbu talablarga moslashuv bo'yicha kerakli ishlarni amalga oshirishlari kerak va shu bilan tizimda yuklar va insonlarni tashish jarayonlarini xavfsizligini doimiy ta'minlash imkoniyati mustahkamlanadi. Bundan tashqari ushbu texnik reglament talablari asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun texnik to'siqlar yuzaga kelmasligini oldini olish uchun me'yoriy hujjat xalqaro talablarga uyg'unlashgan holda ishlab chiqilgani xalqaro miqyosda tan olinganini ta'minlash bo'yicha Texnik jihatdan tartibga solish agentligi kerakli ishlarni amalga oshirishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. “Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 23.04.2009, O`RQ-213 son.
2. O`zDST 18.0:2010 “O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi. Asosiy qoidalar”.
3. O`z DST 181:2010 “O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi. Texnik reglament. Ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va kiritish tartibi.
4. O'zbekiston Respublikasi texnik reglamentlar reestri.
5. O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini shakllantirish va standartlashtirish davlat tizimini isloh qilish konsepsiyasi.
6. “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 02.06.2021, PF-6240-son.

